



BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH USULLARI

Exsonova Feruza Turdixo`jayevna

UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY NOTM

"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim" kafedrasi PhD dotsent

Annotatsiya: Maqolada Vatan va vatanparvarlik tarbiyasi haqida, boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning milliy, tarixiy asoslari, o'quvchilarni tarbiya darslarida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash shakli, vosita va usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Vatan, vatanparvarlik, mustaqillik, qadriyat, ajdodlar, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Amir Temur, tarbiyaviy tadbirlar.

Аннотация: В статье рассматриваются Родина и патриотическое воспитание, национально-исторические основы воспитания учащихся начальных классов в духе патриотизма, формы, средства и методы воспитания учащихся в духе патриотизма в учебных классах.

Ключевые слова: Родина, патриотизм, независимость, ценности, предки, Абу Райхан Беруни, Абу Наср Фараби, Амир Темура, просветительская деятельность.

Abstract: The article discusses the Motherland and patriotic education, the national and historical foundations of educating elementary school students in the spirit of patriotism, the form, means and methods of educating students in the spirit of patriotism in educational classes.

Key words: Motherland, patriotism, independence, value, ancestors, Abu Rayhan Beruni, Abu Nasr Farabi, Amir Temur, educational activities

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy sohalarida katta islohotlarning sodir bo'lishi kelajak avlod tarbiyasi oldigamuhim vazifalarni qo'ymoqda. Bu, avvalo, kelajak avlodning ana shu



o`zgarishlarga dadil moslashaoladigan yuksak bilim, mahorat, keng dunyoqarash va e`tiqodga ega bo`lishini talabetadi. Vatan insonning ruhiyati, turmush tarzi, ongi va tafakkuri, o`tmishi, buguni vakelajagimujassam bo`lgan tushunchadir. Vatan ostonadan, o`zi tug`ilib o`sgan go`shadanboshlanadi. Shuning uchun bola o`zi yashab, nafas olib turgan xonadonida ulg`ayib voyaga yetishishidamuhtasham va qudratli makon bo`lgan ona zaminiga mehr-muhabbat va sadoqati abadiybo`lmog`i zarur. Har bir insonning vataniga bo`lgan muhabbati ona suti, ona allasi va ota-ona mehri bilanuning vujudiga singib boradi, ota-onasini avlod-ajdodlari, ularning an`analari, urf-odatlarini, kasb-korlarini sevuvchi farzand o`zgalarni ham sevadi. Millati, xalqi, adabiyoti, san`ati, dinivamadaniyatidan g`ururlanib, o`zi o`sgan yurt tabiatidan ilhomlanib, uning muqaddastuprog`iqadrini anglaydi. Insondagi eng oliy tuyg`u — Vatan tuyg`usidir. O`zi tug`ilib-o`sgan ona yurtini jonqadarsevadigan, o`zga yurt tabiatidan o`z yurti tabiatichalik zavq olaolmaydigan, diyoridagi katta-kichik yutuqlardan faxrlanadigan, hatto mitti chumoli harakatidan zavqlanadiganbutunaql-zakovati, qalb qo`ri, kuch va imkoniyatini shu jamiyat va tabiat go`zalligi, rivojiga bahshidaetaolgan insondagina bu tuyg`u namoyon bo`ladi.

1- Prezidentimizning vatanparvarligi, millatparvarligi evaziga 1991 yilning 31-avgustida O`zbekistonning davlat mustaqilligi e`lon qilingach, o`zbek millatining qaddi tiklandi, Vatanqadri ortdi, zo`rovonlik yo`li bilan yo`q qilingan milliy qadriyatlarimiz, dinimiz («Navro`z»bayrami, Ramazon va Qurbon hayitlari va hokozo) xalqqa yana qaytarildi. Mazmun va mohiyatan tamomila yangi davlatimizning asosiy Qomusi —O`zbekistanDavlatining Konstitutsiyasi qabul qilindi. Darhaqiqat, davlatimiz ramzlarida o`zbek xalqi mentaliteti, g`ururi, hissiyoti, tarixiyxotirasi,porloq turmushga intilishi mujassam bo`lgan. Vatan, xalq bor joyda vatanparvarlik tuyg`usi paydo bo`ladi. Bu tuyg`u insonni jasoratga,ezgulikka halol mehnatga da`vat etadi. Millatni millat bo`lib shakllanishida turli hayotto`fonlaridan omon saqlab qoladigan ham vatanparvarlik tuyg`usidir. Vatanparvarlik - kishining o`zi tug`ilib o`sgan, kamol topgan joy, zamin, o`lkagabo`lganmehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma`naviy ahloqiyxislatlari,fazilatlaridir.



Vatanparvarlik — inson ma'naviy yetukligining yuksak mezonlaridanistiqloqlolmafkurasining negizini tashkil etuvchi qadriyatli va his-tuyg`ularidan biridir Vatanparvarlik hissini o`z farzandi qalbiga singdira olgan ota-onaning, shundayruh, bilanyashaydigan xalqning kelajagi porloqdir. Vatanparvarlik — Vatan osoyishtaligi, ota-ona, El- yurt, jigargo`shalar tinchliginisaqlash, himoya qilish uchun jismoniy va ma'naviy tayyor bo`lish, harbiy vatanparvarlik sir-asrori bilan puxta qo`rollanish, bilim, malaka va ko`nikmaga ega bo`lishdir. Vatanparvarlik — halol mehnat qilish zahirida mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiyvamadaniy rivojlanishiga munosib ulush qo`shish, el-yurt manfaatlarini o`z manfaatlaridanyuqoriqo`yish demakdir. Bolalarimiz qalbida vatanparvarlik tuyg`usini shakllantirishni bolaningmaktabgacha yosh davridan boshlash ota-onaning, tarbiyachi-murabbiylarning, jamoatchilikningVatan oldidagi burchlaridir. Endilikda hayotimizning barcha sohalarida respublikaning milliy manfaatlaridankelibchiqqan holda, avlod ajdodlarimizning azaliy turmush tarzi, an`analari, urf odatlarivako`nikmalarini hisobga olib, bolalarimizda xalqimizga, o`z vataniga mehr, samimiylik, histuyg`ularini shakllantirish, ularni rivojlanitirish, tarbiya nazariyasi va amaliyotiga tadbiquetishmuhim dolzarb muammoga aylanmoqda. Vatanparvarlik, insonparvarlik va mehr-muruvvatlilikni shakllantirish tarbiyaningengmuhim qismlaridan biridir. Shuning uchun ham maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasidaengavvalo ularning ruhiy jarayonlarini o`stirish, rivojlantirish va takomillashtirib borishgayordamberuvchi omillarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Shunday ekan, bolalar tarbiyasida oliy his-tuyg`ularini shakllantirib, o`stirib borish—ularni ijtimoiy turmushning murakkab va ziyatlariga moslashtirib boruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo`lganshart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini beradi. Vatanparvarlik yuksak e`tiqod, vatan va millat oldidagi mas`uliyat, yuksakburchnianglashdir. Ajdodlardan avlodlarga o`tib kelayotgan —Vatanni sevmoq iymondandir, —deganhadis zahirida ham huddi shunday mazmun mujassam. Agar uzoq tariximizganazartashlaydigan bo`lsak, vatanga e`tiqod tuyg`usi xalqimiz tomonidan



qadimdane'zozlanibkelinganining guvohi bo'lamiz. Ajdodlarimiz orasidan yetishib chiqqan mashhur insonlarning xatti-harakatlari, vatan ravnaqi yo'lida chekkan zahmatlarini, bizgacha yetib kelgan asarlarida xalq og'zaki ijodi orqali bilib olishimiz mumkin. Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Umar Hayyom, Yusuf Xos Hojib, At-Termiziy, Ahmad Yassaviy, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur, Uvaysiy, Nodirabegim, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Anbar Otin, Behbudiy, Cho'lpon kabilarning hayoti va ijodiy faoliyati, ayniqsa, vatanga e'tiqod haqidagi g'oyalari bugungi yangi jamiyatimiz taraqqiyoti uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Millatimizni dunyoga mashhur qilgan adabiy va ilmiy meroslar sirasiga «Avesto», Imom Al-Buxoriyning «Al-jome' as-sahih», Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Beruniyning «Osoral-Baqiya», ibn Sinoning «Tib qonunlari», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'ubilig» asari, Mahmud Koshg'ariyning «Devoni lug'atit turk», Amir Temurning —Temur to'zuklaril, Alisher Navoiyning «Hamsa», —Lisonut tayr, «Mahbub-ul-qulub», Boburning «Boburnoma», Ahmad Yassaviyning «Devoni hikmat» kabi noyob asarlarini kiritish mumkin. Sharq xalqlari orasida keng tarqalgan odob-o'g'itlar, pand-nasixatnomalar, diniy-falsafiy kitoblarda vatanga e'tiqod qilishga keng o'rin berilgan. Keyingi yillarda yurtimizda bo'layotgan o'zgarishlar tufayli bu manbalarni o'rganishga va ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etishga e'tibor kuchaydi. Ayniqsa, asrlarga tengdosh yozma bitiklar va xalq og'zaki ijodida, ya'ni afsonalar, ertaklar, rivoyatlar, maqollarda yuksak insoniy tuyg'ular ulug'lanadi. Bu manbalarning yoshavlodni vatanga e'tiqod ruhida tarbiyalashda ahamiyati nihoyatda kattadir. Muqaddas islom dinida ham imon tushunchasidan keyin «Vatan» tushunchasining ifodalanishi bejiz emas. O'zbekiston Respublikasi 1-Prezidenti I.A. Karimov Turkiston gazetasi muhbirining savollariga javoblarida: «Biz ota-bobolarimizning muqaddas dini bo'lgan islom dinini qadrlaymiz, hurmat qilamiz, odamzod ruhiy dunyosida imon- e'tiqodni, insoniy fazilatlarni mustahkamlashda uning o'rni va ta'sirini yuksak baholaymiz», - deb ta'kidlagan edilar. O'zbek xalqi tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ajdodlarimiz orasidan yetishib



chiqqan haqiqiy vatanga e'tiqodli insonlarning siymosini ko'ramiz. Masalan, To'maris va Shiroq, Muqanna, Spitamen, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, ikkinchi jahon urushi yillarida halok bo'lgan ko'plab yigitlarning nomlarini keltirish mumkin. Bugungi kunda mustaqillik sharofati tufayli, ularning nomlarini g'urur va iftixor ilatilga o'lmoqdamiz, o'zbek xalqi ozodligi yo'lida chekkan zahmatlarini yuksak qadrlamoqdamiz. Bugun biz qadriga eta boshlagan vatanimizni ota-bobolarimiz, jahonga mashhur sarkardalar, ma'rifatparvar kishilar ko'z qorachig'iday asrashgan, millat sha'ni va ornomusi uchun jang qilishgan. Yuqorida e'tirof etganimizdek, Shayx Najmiddin Kubro, Amir Temur, Ulug'bek, Alisher Navoiy va Bobur singari mutafakkirlarimizning vatanga e'tiqod, vatanparvarlik haqidagi ko'plab fikr-mulohazalari, vatan taraqqiyoti uchun qilgan ezgu ishlari bugungi kunda har bir vatandoshimiz, ayniqsa, yoshlarimiz uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik tuyg'usi yuksak darajada shakllangan, milliy g'urur va iftixorimizga aylangan buyuk bobokalonlarimizning o'gitlarida o'zaksini topdi. O'z vatani ozodligi yo'lida qo'lga qilich olib, dushmanga qaqshatqich zarbalarni keltira olgan Xorazmning mard o'g'loni Jaloliddin Manguberdi. Jaloliddin Manguberding hayoti va vatanga e'tiqod yo'lidagi faoliyatini chuqur tahlil asosida o'rganish o'smir yoshdagi o'quvchilarning vatanga e'tiqod, ona-Vatanga cheksiz muhabbat, g'urur va iftixor, vatanvaxalqtinchligi yo'lida jon fido etish, insonparvarlik kabi qarashlarini tarkib toptirish va takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek millatini dunyoga tanitgan bobomiz Amir Temurdir. U nafaqat millatni dunyoga mashhur qildi, vatanning sarhadlarini kengaytirib, markazlashgan, cheksiz hududga egabo'lgan mamlakat barpo etib, ilmu ma'rifatni rivojlantirdi, ajoyib va go'zal bog'u rog'lar, tog'lardek yuksak minora, obidalar barpo etdi. O'z millati qadriyatlarini ulug'ladi, ularning qadriga etdi. Millat taqdiri bilan yashash, vatanga e'tiqod, adolat, insoniylik uning butun hayotiy faoliyatini tashkil etdi. Shu bois Amir Temur «Kuch adolatdadir» degan hukmni chiqardi. Buhikmat asrlardavomida xalqimiz uchun



asosiy yo`riqnoma bo`lib kelmoqda. Amir Temur o`z vasiyatini hammillat va vatan qadr-qimmatini o`ylab bayon qilgan, farzandlari, nabiralariga millat vavatanravnaqi haqida qayg`urish, kambag`al, yo`qsillarning boshini silashni vasiyat qildi, so`nggidaqiqalarida ham o`z xalqi va vatanining taqdirini o`yladi. Huddi dars jarayonida bo`lgani kabi tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishdahamsinfo`qituvchisining vazifasi mas`uliyatli va ahamiyatlidir. Bu mas`uliyat ulardan doimiy ravishdao `z ustida ishlash, ijodiy mehnatni talab qiladi. Mustaqillik bayrami, Konstitutsiya kuni, Alifbo bayramlari, Yangi yil, Harbiylar kuni, mashhur allomalarning tug`ilgan kunlari, 8 mart, Navro`z bayrami, gullar, mehrjon, hosil bayramlari kabilar. Mana shunday tadbirlar bevosita o`quvchilardavatangae`tiqodni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu tadbirlar uchun xalq og`zaki ijodi, badiiyadabiyotnamunalari muhim manba hisoblanadi. O`quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda uyushtiriladigan sinfdanvamaktabdantashqari tarbiyaviy tadbirlar ma`lum talablarga javob berishi lozim. Ya`ni; - tarbiyaviy tadbirning rejali, maqsadli, izchil, sistemali o`tkazilishi; - tarbiyaviy tadbirni hamkorlik pedagogikasi asosida tashkil etish; - o`quvchi yoshlarni , psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish; - tarbiyaviy tadbirlarning o`quvchilarning qiziqishi, mayli, intilishlariga javob berishi; - hayotiy muammolarning yechimini topishga yo`naltirilganligi; - ta`lim jarayonida olingan ahloqiy-ma`naviy bilim, malaka va ko`nikmalarni mustahkamlash,to`ldirish va rivojlantirish; - Vatan himoyachisi, oila boshlig`i, jamiyatning faol fuqarosi bo`lishga tayyor turish.

Bosqichlarning har biri o`qituvchi tomonidan oldindan chuqur o`rganilgan bo`lishi lozim. Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirish uchun yordam beradigan quyidagi metodiktavsiyalarni bayon etishni lozim topdik: 1. O`quvchilarning tadbirlariga rahbarlik qilishda, avvalo milliy qadriyatlar, ularningahamiyatliligi, ijtimoiy xarakteriga e`tibor berish kerak. 2. Yaxshi ishtirok etgan o`quvchilarni sinf va maktab jamoasi oldida rag`batlantirish. 3. Darsdan tashqari tadbirlar orqali o`quvchi shaxsidagi ahloqiy sifatlarni rivojlantirishyo`llariniizlash. 4. Sinfdan tashqari mashg`ulotlarga rahbarlik qilish jarayonida ba`zi



o`quvchilardamavjudsalbiy xususiyatlarni bartaraf qilib borish. Mazkur ishlarni amalga oshirishda har bir boshlang`ich sinf o`qituvchisi, engavvalo,tashkil qilinadigan tarbiyaviy tadbirlarning mazmunini chuqur o`rganishi, uningnatijalarigajiddiy e`tibor berishi va bu bilan o`quvchi shaxsiga ijobiy ta'sir etishga intilmog`i, vatangae'tiqod, milliy g`urur, vatan ravnaqi uchun xizmat qilish, qolaversa, ona tabiatni asrashkabisifatlarni yanada rivojlantirish yo`llarini izlamog`i lozim. O`qituvchisi o`quvchilarga vatanparvarlik tuyg`ularini singdirar ekan, Vatanostonadan,oiladan, mahalladan boshlanishini, Vatan tushunchasi har bir insonning yuksak darajadagi histo`yg`ulari, sadoqatli, fidoiy mehnati, o`zaro izzat-hurmat kabi insoniy fazilatlaridanamoyonbo`lishini anglatib bormog`i lozim. Bu o`rinda respublika sportchilarining Xalqarosportmaydonlaridagi, ayniqsa, Olimpiya o`yinlaridagi ishtiroki, g`alabasi ana shu hislatlar tufayliustuvor ekanligini anglatib borish joiz. Ayniqsa, yurtimiz bayrog`ini uzoq o`lkalardaviqorbilanko`tarilishi, madhiyamizning baland yangrashi, sportchilarning ona-Vatan sharafi uchunkurashgan va hissa qo`shganligining timsoli ekanligini bolaga yoshligidanoq o`rgatibborishzarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov I.A .Vatan ozodligi- oliy saodat. –T.: O'zbekiston. 1999
2. Jalolov A. O'zbekiston. Mustaqillik, ma'naviyat, mafkura. - T.: O'zbekiston, 1994.
3. E.Yusupov o'zining «Inson kamolotining ma'naviy asoslari - T.: O'qituvchi, 2001.
4. B.Aminov, T.Rasulov o'zlarining "Vatan - yurakdagi javohir". –T.: Sharqnashriyotmatbaa kontserni, 1999.
5. Baxranov Sh. SHaxs milliy o'zligini anglash qonuniyatlari. – Samarqand: Zarafshon,1995